

ERNEST XEMINGUEYNING “CHOL VA DENGIZ” ROMANIDA INSONIY TUYG‘ULAR TALQINI

Abdurahmonova Gulira’no G‘aybidin qizi

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat
pedagogika universitetining O‘zbek
tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada roman to‘g‘risida shoir va yozuvchilarning fikrlari, asardagi bosh g‘oyalar, fikrlar va ramzlarning ochib berilishi, asar bo‘yicha qo‘shimcha va takliflar bayon etiladi

Kalit so‘zlar: Ernest Xeminguey, voqealar rivoji, Santyago, romandagi ramzlar, yozuvchilarning fikrlari, roman iyerarxiyasi, iqtiboslar.

ABSTRACT

This article describes the opinions of poets and writers about the novel, revealing the main ideas, thoughts and symbols in the work, additions and suggestions about the work.

Keywords: Ernest Hemingway, development of events, Santiago, symbols in the novel, writers’ thoughts, novel hierarchy, quotations.

АННОТАЦИЯ

В данной статье излагаются мнения поэтов и писателей о романе, раскрываются основные идеи, мысли и символы в произведении, дополнения и предложения по поводу произведения.

Ключевые слова: Эрнест Хемингуэй, развитие событий, Сантьяго, символы в романе, мысли писателей, иерархия романа, цитаты.

Ernest Xemingueyni eng sevimli adiblarimdan biri deb hisoblayman. Barcha kitoblarini o‘qib chiqmaganman, ammo ko‘plab asarlarini o‘qiganman. Bular ichida eng yengil o‘qiladigan va shu bilan birga o‘zida juda katta yukni ko‘targan asar, shubhasiz, “Chol va dengiz”dir. Yozuvchiga Nobel mukofotini ham aynan shu asar olib kelgan. Bolaligimda bu kitob ta’sirida hattoki do‘stlarim bilan qog‘ozdan qayiqlar yasaganman, ariqda oqib, o‘zimni asar qahramoni sifatida tasavvur qilganman. Katta hovuzimiz bo‘lardi, unda ko‘p baliqchalar bo‘lar edi. O‘sha hovuzga baliq oviga borsam, hamisha yodimga kelardi, qaytib kelib esa o‘zimga yoqqan eng ta’sirli

dialoglar qismini qayta-qayta o'qigim kelardi. Garchi asar to'g'risida tasavvurlarimni bayon etdim, endi asar muallifi va roman haqida ham ma'lumotlar berish joiz deb o'yladim. "Chol va dengiz" – amerikalik yozuvchi Ernest Xemingueyning 1952-yilda Bagama orollarida yozilgan va nashr etilgan romani. Xemingueyning hayoti davomida nashr etilgan so'nggi taniqli asari. Kubalik baliqchi, keksa Santyagoning hayotidagi eng katta o'ljaga aylangan ulkan marlin bilan ochiq dengizdagi jangi haqida hikoya qiladi. Asarning kitob versiyasi 1952-yil 1-sentabrda chop etilgan. Tiraji 50 ming nusxadan iborat bo'lib, Charlz Tannikliff va Raymond Sheppardlar chizgan oq-qora rasmlar bilan boyitilgan. 1953-yil may oyida Xeminguey faoliyati uchun Pulitser mukofotiga, 1954-yilda esa adabiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. "Chol va Dengiz"ning muvaffaqiyati Xemingueyni dunyoga mashhur qildi. Asar hozir dunyoning ko'p davlatlarida, maktablaring adabiyot darslarida o'rganilmoqda. Albatta bundan juda xursand bo'lsak arziydi.

Bu roman to'g'risida juda ko'p shoir va yozuvchilar fikrlar va g'oyalar aytib o'tgan: **"Asarni o'qiy o'tirib, inson bolasi o'z maqsadlariga erishish yo'lida ko'p qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligini, biroq kitob qahramoni Santyago singari bunday qiyinchiliklarni kerak yerida qaysarlik bilan yengib, o'z maqsadiga erishish mumkinligini tushunib yetish mumkun.** Demak, Ernest Xeminguey bu asarida insonning ulug'vorligini, undagi erk va matonat, o'z azim-u qaroridan qaytmasligini o'zgacha uslubda tasvirlab bera olgan" "Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib bo'lmaydi" ushbu mashhur jumla ko'pchilikka tanish. Ernest Hemingueyning "Chol va dengiz" asaridan olingan parcha asarning butun bir ma'no va g'oyasini qamrab oladi. Odamni yanchib tashlash deganda jismi nazarda tutilgan. Uni bir lahzada yanchish, tilka-pora qilish mumkin, ammo ruhini, irodasini yengish oson emas, deyarli imkonsiz. Chunki, inson zoti yengilishni qabul qilolmaydi. Harakatdan, yengish sari odimlashdan to'xtamaydi?

Bunday fikrlarning keltirilishi, ma'lumki asarning juda ko'p g'oyalarga va falsafiylikka boyligidan dalolatdir. Asarda adib inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni, insoniyatning hamisha kurashuvchanligini ham tasvirlaydi. Qissa uning ana shu jihatlari yorqin ko'zga tashlanadigan asarlaridan. Shunday kurash oldida borayotgan o'quvchi beixtiyor asardagi muvaffaqiyatsizlikdan og'rinmaydi, balki insonning oldinga bo'lgan ishonchi uni ruhlantirib boraveradi. Buning yaqqol ko'rinishi asarning shunday parchalarida keltirilgan, "Chol shunchalar katta baliq tutgandiki, ilgari unga ishonchsizlik bilan qaragan ko'zlar, endi hayrat bilan boqardi. Garchi chol butun baliq bilan qaytmagan bo'lsa-da, hammasini uddalagandi. Bu muvaffaqiyatiga esa uning umidi, sinmas irodasi sabab bo'ldi".

Asarni tahlil qiladigan bo'lsak, undagi ramzlarga alohida e'tibor qaratish kerak, negaki ramzlar butun bir romanni to'laligicha ochib beradi. Dengiz bu – hayot. Qayiq

– umr. Baliq – orzu. Akulalar – dushmanlarimiz. Dengiz qayiqni chayqatganidek, ba’zan dovul bilan hamla qilsa, ba’zan sokin bo’lganidek, umrimiz davomida hayot bizga turli sinovlar, og’irlig-u yengillik, xursandchiliklar beradi. Chol baliqni tutgach uni asrab qolish uchun jon olib, jon berganidek biz ham yetishgan orzularimizni akula bo’lmish dushmanlarimizdan himoya qilishga tirishamiz. Ramzlarni agar falsafiy qarashlar bilan ifodalasak, dengizni- hayot dedik, hayotda yashar ekanmiz, uning past-balandlaridan, tekis va g’adir-budir yo’llaridan yuramiz, qayiqni-umrga qiyos qildik, ya’niki tug’ilib vafot etganimizgacha bo’lgan davrlar nazarda tutilgan. Asarda baliq obrazi orzu demakdir. Bunda Santyagoning orzusi, o’sha ulkan baliqqa yetishish edi. U bu orzuga erishishda ko’plab azoblarga, mushkulliklarga duch keladi. Bu mushkulliklarni keltirib chiqarishda albatta, dushmanlar ya’ni asarda akulalar rol o’ynaydi. Asardagi bu ramzlar orqali shunday deyishimiz mumkin: biz ham maqsadlarga, orzularga erishishda, Santyagoni o’rnak qilib olsak bo’ladi, chunki, u baliqni tutishga ishonadi azob-uqibatlariga, dovullarga, qonxo’r baliqlarning tajovuzlariga taslim bo’lmadi. Asarda chol va bola tili orqali beysbol chempioni Di Majo haqida gap boradi. Bu chempionga chol o’zini ko’p taqqoslaydi. Bu ham bejiz emas. Di Majo minglab insonlar qarshisida o’zining nimalarga qodir ekanini isbotlay olgandi. Bizning Santyago esa yolg’iz o’zi, dengizda, atrofida baliqlar va qushlardan boshqa jonzot yo’q. Bu holatda chol o’ziga o’zini isbotlashi kerak. Hayotda eng muhimi ham, eng qiyini ham aslida shudir. Chunki inson biladi o’zining nimalarga qodir ekanini. Nimalar qilishini, nimalar qila olishini, qachon va qay tarzda amalga oshira olishi o’ziga yaxshi ayon bo’ladi. Shunday ekan, odam o’ziga o’zini isbotlab, katta narsalarga qodir ekanini ko’rsatolsa, undagi o’ziga ishonch yuksaladi. Bu esa irodani mustahkamlab, orzularni kattalashtiradi. Santyago buni uddaladi. O’zining kuchliligini o’ziga amalda isbotladi.

Asarda keltirilgan iqtiboslarga ham nazar solsak, katta ma’nolarni tushunishimiz qiyin bo’lmaydi, xususan,

-Itoatkorlik ruhi qachondan boshlab o’z qalbida qo’nim topgani ustida bosh qotirib o’tirmoqlik uchun chol benihoya soddadil edi. Ammo u o’zining itoatgo’y bo’lib qolganini va bu itoatdan u o’z nomusi, insonlik qadr-qimmatini yo’qotmaganligini bilar edi... --Endi faqat bir narsa ustida bosh qotirish kerak. Gap mening nima uchun tug’ilganim ustida boradi...

-Garchi adolatdan bo’lmasa-da, — fikran davom etdi u, — men odam bolasining nimalarga qodir ekanligi va nimalarga dosh berib, chidashi mumkinligini ko’rsatib qo’yaman...

-Ammo inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo’lib ketaverish uchun yaratilmagan, — dedi u. — Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib bo’lmaydi...

-Umidsizlik — halokat, — deb o‘ylardi u. — Buning ustiga, fahmimcha, umidsizlik hatto — gunoh. Nima gunoh-u, nima gunoh emas, deb bosh qotirib o‘tirishning hojati yo‘q. Busiz ham dunyoda boshni qotiradigan narsalar to‘lib-toshib yotibdi. To‘g‘risini aytganda, men gunoh bo‘lgan narsalarni yaxshi tushunmayman... Yuqorida keltirgan iqtiboslar guvohi bo‘lganidek, asar bosh qahramoni bo‘lgan Santyagoning ichki kechinmalari va ruhiyatida bo‘layotgan muloqotlar hisoblanadi.

Aslida bu hikoyada ko‘p narsa sodir bo‘lmaydi, lekin sizni birinchi sahifadan oxirgi sahifaga qadar butun diqqatingizni tortib oladi. Bu yerda men uchun eng kutilmagan narsa bu asarning yakuni bo‘lgan. Nazarimda, hamma narsa juda qayg‘uli tugashi kerak edi. Biroq bu ham yomon emas. Bunday yakun cholni qahramonga aylantirmaydi, lekin u eng qimmatli narsasini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgani sababli u yutqazmaydi. Bu yerda chol oddiy odam va bu hikoyaning go‘zalligi shunda. Asardan juda ko‘p xulosalar chiqarish mumkin. Jumladan, hayotdagi yetishmovchiliklarga, zarbalarga doim gerdayib, kulib, tik turish kerakligi barcha maqsadlarga va orzularga sabr -bardosh bilan yetish kerakligi, tashvish va muammolarni kuchli iroda bilan yechish kerakligini anglash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. “Daryo” kolumnisti Nurbek Alimov “Jahon adabiyotining eng buyuk asarlari” loyihasi tahlili. 12-bet
 2. “Qashqadaryo” gazetasi veb-sahifasi. 6-bet
 3. Jahon adabiyoti. Ulug‘bek Hamdamov, Abdug‘ofir Qosimov, Toshkent-2017. 307-308-betlar
 4. “Chol va dengiz” romani Ernest Xeminguey. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent-2017. 1-33-43-betlar
- 3 Хемингуэй Э. Писатель и война; Речь на 2 Конгрессе американских Писателей // Писатели США о литературе: В 2-х т. – М., 1982. – С. 90.